www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

IMOM BUXORIY HADISSHUNOSLIK TIZIMINING ISLOM OLAMIGA TA'SIRI

UMFT "Gumanitar fanlar" kafedrasi M.X.To'xtayeva
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b

Annotatsiya. Maqolada, O'zbekiston zaminidan tug'ilgan, dunyo hadis ilmi ustozi sanalgan Imom Buxoriyning hayoti va ma'naviy merosi, u meros qoldirgan shoh asarlari davrlar osha axloqiy va huquqiy hikmatlari ilmiy asosda har tomonlama chuqur o'rganilayotganligiga; Islom dinining tom ma'noda komillikka chorlaydigan, insoniy fazilatlarga targ'ib qiladigan, botil mafkuralardan saqlaydigan din ekanligi to'g'risida, uning asl mazmun – mohiyatini teran anglashda, ijtimoiy axloqiy masalalarga targ'ib etishda, yoshlar tarbiyasini milliy va diniy qadriyatlar asosida shakllantirishda Imom Buxoriy merosining o'rni va ahamiyati muhimligiga e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, Qur'oni Karim Islom dasturi, Islom shariati, hukmlari va odoblarining birinchi manbai ekanligi, Rasulullo sollallohu alayhi vasallamning hadislari esa Islom shariatining Qur'ondan keyingi ikkinchi asl manbai hisoblanishi; Hadis tushunchasi, mazmun mohiyati, Imom al-Buxoriy to'plamlariga kiritilgan hadislar faqat islom ta'limotiga oid umumiy qoidalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmasligi, balki xadislarining jahonshumul ahamiyati insoniylik, insonparvarlik Vatanga muhabbat haqida tarbiya berishi bilan yosh avlodda ezgulik va go'zallik tuyg'ularini mujassamlashtirishi, yosh avlodni insoniylik fazilatlari ruxida tarbiyalash to'g'risida fikrlar bildirilgan. Imom Buxoriy merosini o'rganish va tadqiq qilish bo'yicha olib borilgan tadqiqot bilan bog'liq adabiyotlar tahlil qilingan va ayni paytda Imom Buxoriy ma'naviy merosini o'rganish bo'yicha O'zbekistonda olib borilayotgan ishlar tahliliga ham e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Hadis, ma'naviy meros, islom, din, muhaddis, Qur'oni Karim, Sahih al - Buxoriy, odob-axloq, mehr, adolat.

THE INFLUENCE OF IMAM BUKHARI ON THE SYSTEM OF HADITH STUDIES IN THE ISLAMIC WORLD

Abstract. The article examines the life and spiritual heritage of the world-renowned hadith scholar, Imam Bukhari, who was a native of Uzbekistan. The works left by him, his moral and legal views are subjected to a comprehensive and in-depth scientific study. Attention is drawn to the fact that Islam is essentially a religion that strives to achieve personal perfection, preserve humanity in it and protect him from false ideas. The legacy of Imam Bukhari occupies a special place in a deep understanding of the inner essence of Islam, consideration of socio-ethical problems and the formation of the young generation on the basis of national and religious values. At the same time, the main sources for these issues are the Koran, Sharia and the ethics of Islam, followed by hadiths, which are narratives about the life and deeds of the Prophet. It is noted that the hadiths included by Imam al-Bukhari in his collections are not limited only to the general provisions of the Islamic faith, they are of global importance, since they contain certain views on humanism, education of love for the Motherland, virtue and a sense of beauty in young people, the development of personal traits in them. When conducting this study of the heritage of Imam Bukhari, an analysis of the relevant literature was carried out and attention was drawn to other works in Uzbekistan devoted to the study of the spiritual heritage of the thinker.

Key words: Hadith, spiritual heritage, Islam, religion, muhaddith, Koran, Sahih al-Bukhari, moral, kindness, fairness.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

ВЛИЯНИЕ ИМАМА БУХАРИ НА СИСТЕМУ ХАДИСОВЕДЕНИЯ ИСЛАМСКОГО МИРА

Аннотация. В статье рассматривается жизнь и духовное наследие ученого-хадисоведа с мировым именем, уроженца Узбекистана Имама Бухари. Оставленные им произведения, его морально-нравственные и правовые взгляды подвергаются всестороннему и глубокому научному исследованию. Обращается внимание на то, что ислам по своей сущности является религией, которая стремится к достижению личностью совершенства, сохранению в ней человеческих качеств и защите от чуждых идей. Наследие Имама Бухари занимается особое место в глубоком понимании внутреннего содержания ислама, рассмотрении социально-этических проблем, формировании молодого поколения на основе национальных и религиозных ценностей. При этом первоисточником по данным вопросам являются Коран, шариат и этика ислама, за которыми следуют хадисы, представляющие собой предания о жизни и деяниях Пророка. Отмечается, что хадисы, включенные Имамом аль-Бухари в его сборники, не ограничиваются лишь общими положениями исламского вероучения, имеют общемировое значение, поскольку в них присутствуют определенные взгляды по вопросам гуманистического характера, воспитании в молодых людях любви к Родине, добродетели и чувства прекрасного, развитии в них личностных качеств. При проведении данного исследования наследия Имама Бухари был проведен анализ соответствующей литературы и обращено внимание на другие работы в Узбекистане, посвященные изучению духовного наследия мыслителя.

Ключевые слова: Хадис, духовное наследие, ислам, религия, мухаддис, Коран, Сахих аль-Бухари, мораль, добродетель, справедливость.

Kirish. O‘zbekiston zaminidan azal-azaldan o‘zlarining ilmiy – ma’naviy, ma’naviy – falsafiy meroslari bilan jumlai jahonga tanilgan ko‘plab buyuk allomalar va mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ularning aql – zakovati, tafakkur dunyosi va yuksak ilmiy salohiyatining mahsuli bo‘lgan bebaho asarlari, buyuk kashfiyotlari ming yillar osha nafaqat bizning diyorimiz, balki jahon ahlining qudratli ma’naviy mulki sifatida ham ardoqlanadi. Bu umumbashariy meros dunyo tamadduni rivojiga qo‘shilgan munosib hissa bo‘lganligi hozirgi vaqtda ilm ahllariga hamda keng jamoatchilikka ham yaxshi ma’lum.

Dunyo hadis ilmi ustozlari sanalgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Dorimiy, Abdulhamid Keshiy, Ibn Xibbon kabi muhaddislarning buyuk xizmatlari sababidan yurtimiz ulug‘ muhaddislar yurti deya e’tirof etilib, ularning noyob asarlari keng o‘rganilgan.

Muhaddislar sultoni bo‘lgan Imom Buxoriy hayoti va ma’naviy merosini keng tadqiq etish yuzasidan nafaqat yurtimiz balki butun musulmon olamida keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Imom Buxoriyning hayoti va faoliyati, u meros qoldirgan shoh asarlar davrlar osha axloqiy va huquqiy hikmatlari ilmiy asosda har tomonlama chuqur o‘rganilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganlaridek, “Markaziy Osiyo uyg‘onish davrining ko‘plab yorqin namoyondalarining islom va jaxon sivilizatsiyasiga qo‘shgan bebaxo hissasini aloxida qayd etmoqchiman. Ana shunday buyuk allomalardan biri Imom Buxoriy o‘z axamiyatiga kura islom dinida Qur’oni karimdan keyingi mukaddas kitob xisoblangan “Sahihul Buxoriy”ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan.[1]”

Islom dinining asl mazmun – mohiyatini teran anglashda ijtimoiy axloqiy masalalarga targ‘ib etishda, yoshlar tarbiyasini milliy va diniy qadriyatlar asosida olib borilishida Imom Buxoriy merosining ahamiyati katta. Muhaddis merosining o‘rganilishi bugungi, tahlikali davr, dindan niqob sifatida foydalanish, asliyatdan uzoq bo‘lgan fikrlarni islomdan qilib ko‘rsatish,

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

umuman madaniyatsizlikni “madaniyat” qilib ko‘rsatishga qaratilgan targ‘ibotlarga qarshi ma’rifiy kurashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Islom dinining tom ma’noda komillikka chorlaydigan, insoniy fazilatlarga targ‘ib qiladigan, botil mafkuralardan saqlaydigan din ekanligi to‘g‘risida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev shunday fikrni keltirib o‘tdilar: “Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz. Bu muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz... Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab – avaylashga da’vat etadi.[1]”

Islom dinining musaffoligini saqlash, uning asl mohiyatini ochib berish, sof e’tiqodni targ‘ib etish yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalar hayoti va ilmiy-ma’naviy merosini mukammal o‘rganish asosida bo‘lib, yurtimizda mavjud kutubxona va qo‘lyozma fondlaridan saqlanib kelinayotgan 100 mingdan ziyod arab, fors va eski turkiy tillardagi noyob asarlarni o‘rganish, keng tatbiq etish bilan amalga oshiriladi.

Ma’lumki, Muhammad Payg‘ambar hadislarini to‘plash, ularning sahihlarini (to‘g‘rilarini, ishonchlilarini) ajratib, Qur’oni Karim oyatlari bilan isbotlash borasida Movarounnahr va Xuroson olimlarining hissalari benihoyat katta bo‘lgan. Chunonchi, Movarunnahr "farzandlari — oltita mashhur muhaddis yaratgan asarlar Islom dunyosida «Kutubi sitta» («Olti kitob» yoki «Sihoh sitta» («Olti sahih kitob») nomi bilan ataladi) shular jumlasidandir. Bu mo‘’tabar zot merosining gultoji bo‘lmish uning ishonchli hadislar to‘plami «Al-Jomi’ as - sahih» asari (“Ishonchli to‘plam” bu asar ko‘pincha “Sahih al - Buxoriy” deb ham ataladi) jumlai jahonda mashhur bo‘lgan bebaho yozma yodgorlikdir. Chunonchi, bu mu’tabar asar haqli ravishda Islom dini ta’limotida Allohning kalomi Qur’oni Karimdan keyingi asosiy manba hisoblanadi. Bu kitob “ … ikkinchi muqaddas manba bo‘lib, ahli islom e’tiqodiga ko‘ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug‘i hisoblanadi. Mana o‘n ikki asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo‘liga chorlab kelmoqda”[2, - B. 38].

Iymonu e’tiqod, insofu diyonat, adolatu ma’rifat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik g‘oyalari, yuksak insoniy fazilatlar majmuasidan iborat bu noyob asar butun bashariyat qalbini munavvar qilib, rushdi hidoyat sari chorlab kelmoqda. “Sahih al - Buxoriy” dunyoning ko‘p tillariga tarjima qilinib, unga yuzdan ortiq sharhlar ham yozilgan. Imom al – Buxoriy “Sahih”dan boshqa islomiy ilmlarning turli sohalariga oid yigirmadan ortiq asar yaratganligi e’tiborga olinsa, buyuk alloma biz avlodlarga naqadar boy meros qoldirganligiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.

Imom al-Buxoriyning hadis ilmini bugungi kunga tadbiq etish juda ham ahamiyatlidir. Bugungi kunda arab tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan hadislar orqali barcha yurtdoshlarimiz hadis ilmidan bahramand bo‘lmoqdalar.

Imom Buxoriyning ma’naviy merosini butunlay yangi yo‘nalishga burish, uning boy ma’naviy xazinasidagi insonparvarlik, bag‘rikenglik, millatlararo do‘stlik va ittifoqchilik, insof va diyonat, mehr va muruvvat, insoniy sha’n va oriyat, adolat va haqqoniyat, xolislik va samimiyat singari umuminsoniy g‘oyalarini keng jamoatchilikka tanishtirish, hamda jahonning turli tillariga tarjima qilib, butun insoniyat uchun xizmat qildirishga keng yo‘l ochish eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Imom Buxoriy butun umri davomida islom dinining ma’rifiy mohiyatini ochishga, undagi bag‘rikenglik, insonparvarlik va adolatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib va tashviq qilish bilan shug‘ullangan. Imom Buxoriyning ibratli hayot yo‘li ham kishilarni jaholat yo‘lidan qaytarishda ibrat timsoli bo‘lishi mumkin. Uning ilmiy haqiqatlar yo‘lida chekkan mashaqqatlari na faqat musulmonlar uchun, balki har bir sog‘lom aql egasi uchun insoniyatning farovon kelajagini bunyod etishda katta tajriba manbai bo‘lishga arziydi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ushbu maqolada, islom ilohiyotshunoslik tizimida Imom Buxoriyning ilmiy - ma’naviy merosiga yangicha nazar bilan qarash, ayniqsa Imom Buxoriy hadisshunoslik maktabining ahamiyati hozirgi kunda g‘oyat dolzarbligi masalalariga

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

e'tibor qaratish, Imom Buxoriyshunoslikni yanada keng ko'lamda rivojlantirish, alloma yozgan asarlarni sinchiklab tahlil qilish kerak bo'ladi. Aynan bugungi keskin globallashuv jarayonida, Imom al - Buxoriyning ilmiy - ma'naviy merosining yosh avlod tarbiyasidagi o'rni masalasining amaliy ahamiyatga egaligi yorqin namoyon bo'lib bormoqda.

Tadqiqot bilan bog'liq adabiyotlarni o'rganish: Imom Buxoriyning hayoti, ilmiy merosini xolis o'rganishga xayrli ishlar 1990 yili Shamsuddinxon Boboxonov tomonlaridan "Al - Adab al - mufrad" asarining ko'p nusxada chop etilishi bilan boshlangan. Nashrga asarning bir qismigina kiritilgan bo'lsa ham ilmiy doiralarda u o'zining munosib o'rnini egalladi. Jumladan, "Al - Adab al - mufrad" birinchi nashriga kiritilmagan qismlarini to'ldirilgan holda 2006 yili Movarounnahr nashriyotida (2000 nusxada) to'liq chop etildi.[3] Nashrdagi keyingi qismlarning tarjimasi Nu'mon Abdulmajid tomonidan amalga oshirilgan.

"Al-Adab al-mufrad" tarkibidagi odob-axloqqa oid hadislardan saylanma nashr etildi. "Al-Adab al-mufrad" asariga bag'ishlangan eng so'nggi tadqiqotlardan biri Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Odoblar xazinasi" asari hisoblanadi. Asar Imom Buxoriy tarjimai holiga oid kirish qismi bilan boshlangan bo'lib, unda olim asarlarining qisqacha tavsifi haqida ma'lumotlar, dastlab asar asliyatining o'zbek tilidagi tarjimasi bilan berilgan.[4]

Professor Ubaydulla Uvatov hindistonlik olim ash - shayx Abdussalom al – Muborakfuriy qalamiga mansub "Siyrat al Imom al - Buxoriy" ("Hazrat imom al - Buxoriy") nomli asarini arab tilidan o'zbek tiliga o'girgan. O'rta asrlarga mansub bir yuz oltmishdan ortiq yozma manbalar asosida yozilgan bu qimmatli asar buyuk muhaddis haqida o'ziga xos mukammal qomusiy manba bo'lib, muallif ushbu yozma manbalarda Imom al –Buxoriy haqida keltirilgan xilma – xil va nodir ma'lumotlarni g'oyatda sinchkovlik bilan yig'ib, har tomonlama qiyosiy ravishda chuqur o'rganilgan va o'z fikrini ifoda etgan.[5, - B. 7]

Payg'ambarimiz hadislari, xususan Imom Buxoriy va Termiziy to'plagan hadis kitoblari, Z.Husnidinovning «Islom: yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar» kitobi kitobxonlar qo'liga yetib bordi. [6]

Hadis ilmining sahih yo'nalishida ham bir qancha olimlar tomonidan sahih asarlarining tarjimalari va sharhlari taklif etildi. Imom Buxoriy merosini o'rganish Alixonto'ra Sog'uniyning maqolalarida va uch kitobdan iborat "Tarixi Muhammadi" [7] asarida uchraydi. Keyinchalik, akademik Ibrohim Mo'minovning O'rta Osiyoda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixiga oid kitoblarida Imom Buxoriy, Imom Termiziy nomlari qayd etib o'tilgan. Olim Z.Ismoil [8] tomonidan to'rt jildlik, tarjimasining to'liq shaklini xalqqa yetkazib berildi. Bu borada faoliyat ko'rsatayotgan olim va tadqiqotchilardan U.Uvatov[9], B.Eshonjonov[10], D.Murodov[11], I.Usmonov[12], Sharqda Al Muborakfuriy[13], Muhammad Abu Zahv[14]; G'arbda esa Djon Byorton[15] va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqot va asarlari mavzuni qanchalik o'rganilganlik darajasini ko'rsatib beradi.

Buyuk muhaddis Imom Buxoriyning hayoti va ma'naviy merosini yanada teranroq o'rganishda yana bir muhim manba, Imom Buxoriy xalqaro markaz ishtirokchilari, ya'ni Sh.Umarov loyihasi asosida "Imom Buxoriy ta'rifi"[16, - B. - 320] kitobi ham nashr etilgan bo'lib, kitobi buyuk muhaddisning hayoti va faoliyati bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilayotgan tadqiqotchilar va yoshlar uchun amaliy ahamiyatga, dasturamal manba sifatda o'z o'rniga egadir.

Mavjud ilmiy adabiyotlar va izlanishlar tahliliga e'tibor karatsak, Islom ilohiyotshunoslik tizimida Imom Buxoriy hadisshunoslik ilmining o'rni, hadisshunoslik maktabi ilmiy-ma'naviy merosi ahamiyati, shu bilan birga Imom Buxoriy ma'naviy merosida diniy va milliy qadriyatlar sinkretlashuv xususiyatlarining ijtimoiy falsafiy tahlil mustaqil tadqiqot ob'ekti sifatida alohida olingan holda o'rganilmaganini e'tiborga olib, biz o'z tadqiqot ishimizda mavzuini ilmiy o'rganish ob'ekti sifatida tanlab oldik.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

Metodlar: Mavzuga oid tadqiqotlar tarixiy, diniy, ilmiy manbalarni o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lib, materiallarni o‘rganish va qayta ishlashda tarixiylik, mantiqiylik, ob’ektivlik, tahlil qilish tamoyillariga amal qilindi.

Natijalar va muhokamalar: Buyuk millat tarixi, ajdodlar hayoti va ilmiy ma’naviy merosini keng tadqiq etish bugungi va kelajak avlodlar ma’naviy komilligini yuksaltirishda katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Har qanday davr va har qanday jamiyatda ham olimu ulamolar, mutafakkiru donishmandlarning o‘rni beqiyos bo‘lgan. Dunyo ahli tomonidan doimo e’zozlanib, o‘rganilib kelinayotgan - turfa ma’naviy qadriyatlarimiz, ko‘hna va boy tariximiz, madaniy merosimizga munosabatning tubdan o‘zgarib, uzoq moziyda yashab abadiy barhayot asarlar yaratib ketgan buyuk allomalarning hayoti va ijodini chuqur o‘rganilib, ulardan keng xalq ommasini bahramand qilinib kelinmoqda.

Islom dini paydo bo‘lganidan boshlab kishilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning shariat qonun-qoidalariga asoslangan nazariy jihatlari ishlab chiqildi. Zero, islom dinining g‘oyaviy ildizlarida inson omili, shaxs muammosi, komil inson tarbiyasi, uning haq-huquqlari, tengligi, ozodligi, hurligi kabi masalalar ustuvor turadi. Chunki insoniyat tarixida har doim inson haq-huquqlari va ozodligi birlamchi muammo bo‘lib kelgan. Islom dinining yirik allomalari, faqihlar, muhaddis-olimlar ham inson huquqlari, uning ruhiy, axloqiy, ma’naviy va jismoniy pokligiga alohida ahamiyat berganlar.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, islom olamining eng ulug‘ muhaddis olimlari Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar to‘plagan hadislarning asosida inson huquqlari, ozodligini, erkinligi va tengligini asoslab beruvchi g‘oyalar tizimi yotadi. Ularning hadislari vositasida insonlar o‘rtasidagi munosabatlar, ixtiloflar va boshqa muammolar hadis, ijmo, qiyos kabi shariat qonunlar asosida hal etilgan. Musulmon olamida «muhaddislar sultoni» deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat ehtirom bilan tilga olamiz. Bu mo‘tabar zot merosining gultoji bo‘lmish uning ishonchli hadislar to‘plami «Al-Jome’ as-sahih» kitobi islom dinida Qur’oni karimdan keyin ikkinchi muqaddas manba bo‘lib, ahli islom e’tiqodiga ko‘ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug‘i hisoblanadi. Mana o‘n ikki asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo‘liga chorlab kelmoqda.

Imom al-Buxoriy ma’naviy merosiga yangicha nazar bilan qarash hozirgi kunda g‘oyat dolzarb bo‘lib, ma’lum ma’noda amaliy ahamiyatga ham ega. Millat va elatlarning o‘ziga xos tarixiy merosi, san’ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlari ham ma’naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o‘ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o‘ynaydi.

Hadisni o‘rganishdan oldin «hadis» o‘zi nima ekanini bilib olish kerak. Hadis (arab. الحديث) - musulmon jamoasining hayotining turli xil diniy va huquqiy jihatlariga ta'sir qiluvchi Payg'ambar Muhammad (s.a.v)ning so'zlari va harakatlariga oid afsonalar[17]. Hadis - Payg'ambar s.a.v.ning barcha musulmonlarga obro'li va shariatning asoslaridan birini tashkil etadigan sunnatni bayon qiladigan Muhammad s.a.v.ning (Kaul), tasdiq (takrir) Payg'ambarlarning sheriklari orqali hadislar naql qilingan.

Arab tilidan tarjima qilingan "Hadis" so'zi, "yangi" yoki "suhbat", "an'analar", "hikoya" degan ma’nodan olingan. Har bir aytilgan gap - so‘z yangi hodisa bo‘lgani uchun arablarda so‘zni «hadis» deyishgan. Hadis deganda Nabiy alahissalomning aytgan gap-so‘zlari ko‘zda tutiladi va tushuniladi. Ulamolar istilohida esa «hadis» quyidagicha ta’riflanadi: «Nabiy sollallohu alayhi vasallamdan osor bo‘lib qolgan gap, ish, taqrir, xalqiy sifatlar, xulqiy sifatlar hamda tarjimai holga tegishli ma’lumotlar «hadis» deyiladi»[18].

Hadis ilmi bilan shug‘ullanuvchi olim «muhaddis» deyiladi. Muhaddislar, asosan, hadisni Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamdan qaysi yo‘llar bilan, kimlar orqali rivoyat qilinib,

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

o‘zlarigacha yetib kelganini aniqlaydigan olimlardir. Ular bu ulkan mas’uliyatli ishni amalga oshirishda juda aniq va ishonchli yo‘llarni tanlashgan. Mazkur uslub va ilmiy yo‘llar insoniyat tarixida umuminsoniy (gumanitar) ilmlarga asos bo‘lgan.

Qur’oni karim Islom dasturi, binosining asosi va Islom shariati, hukmlari va odoblarining birinchi manbaidir. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning hadislari esa Islom shariatining Qur’ondan keyingi ikkinchi asl manbai hisoblanadi. Bu ikki manbaning ham asosi ilohiy vahiydir. Shuning uchun ham ular ilohiy shariatning asosini tashkil qiladi. Ular orasidagi farq shundaki, Qur’oni karimning lafzi ham, ma’nosi ham, ya’ni uning so‘zlari ham, mazmuni ham bevosita Alloh taolodan, ammo hadislarning ma’nosi Alloh tomonidan bo‘lsa-da, lafzi, ifodasi Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam taraflaridandir. Shuning uchun ham Qur’oni karimning har bir oyati Payg‘ambarimizga vahiy farishtasi orqali nozil etilgan, hadislarning ma’nosi esa farishta orqali ham, uning aralashuvisiz ham yetkazilgan.

Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam ham Allohning oxirgi dini – Islomni odamlarga yetkazish bilan birga, unga qanday amal qilishni ham ko‘rsatib berganlar, Qur’oni karim oyatlarini kishilarga o‘rgatish bilan bir qatorda, ularning qanday tatbiq etilishini o‘z so‘zlari va hayot tarzlari orqali tushuntirib berganlar. Mana shu jarayon hadisi shariflarda o‘z ifodasini topgan.

Hadis ilmining sultoni (amir al – mu’miniyn fil hadim), fakihlar rahnamosi (sayid al-fukaho), muhaddislarning imomi, Payg‘ambar alayhissalomning sunnatlari bo‘lmish muborak hadislariga durdona yanglig‘ sayqal berib, ularni abadul – abad barhayot qilgan Imom al-Buxoriy Movarounnaxrning eng qadimiy va go‘zal shaharlardan biri Buxoro shaxrida (194 hijriy sana I’yd al – fit (ramazon) oyining 13 kunida juma namozidan keyin) dunyoga keldi. Imom al-Buxoriy g‘oyatda taqvodor va pokiza inson bo‘lib, Muhammad alayhissalomning sahih hadislarini to‘plashga juda katta mas’uliyat va halollik bilan yondoshganlar.

Otadan yosh qolgan Imom Buxoriy onasi tarbiyasida bo‘lib, ulg‘aygani sari uning qalbida Rasulullohning muborak hadislarini o‘rganishga va yodlashga moyillik kuchaya bordi va dastavval Buxoroning taniqli muhaddis olimi al-Doxiliydan saboq oladi. Imom Buxoriy 16 yoshida onasi va akalari bilan hajga safar Makkai mukarramada, haj ibodatini ado etgan onasi va akasini ortga qaytarib, o‘zi Makkai mukarramada qolib Hadis ilmi sohasida katta obro‘ – e’tiborga ega bo‘lgan Imom Abdul Valiyd Ahmad ibn – al – Arzaqiy, Abdullox ibn – Yaziyd, Ismoil ibn Solim as- Soig‘, Abu Bakr Abdulloh ibn az – Zubayr kabi allomalardan hadis ilmi bo‘yicha saboq oldi. Imom Buxoriy o‘ta iste’dodli, ziyrak, o‘tkir zehnli, qobiliyatli ulamo edi. Imom Buxoriyning o‘z so‘ziga ko‘ra yuz sahih (ishonchli) va ikki yuz ming g‘ayri sahih (ishonchsiz) hadisni yod bilar ekan. Ba’zi rivoyatlarga ko‘ra, Imom Buxoriy 16 yoshga qadam qo‘yganida al - Marvaziy, al - Jarrohlarning kitoblarini batamom yod olgan ekan[19, - B.100].

Imom al-Buxoriy xorijdan qaytgach, o‘z vatani Buxoroda ko‘plab shogirdlar va ulamolarga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg‘ul bo‘lgan. Nishopurlik al - Hakimning (vaf. 1015) yozishicha, al - Buxoriy ustozlarining soni to‘qsontalar atrofida bo‘lib, ular: Muhammad ibn Yusuf al - G‘aryobiy, Ubaydulla ibn Musa al - Abasiy, Abu Bakr Abdulla ibn az-Zubayr al - Hamiydiy ibn Rohaviyh nomi bilan mashhur bo‘lgan Imom Is'hoq ibn Ibrohim, Imom Ahmad ibn Hanbal, Ali ibn al - Madaniy va boshqalardir.[20, - B.31] O‘z navbatida al - Buxoriy ham ko‘pgina shogirdlariga ustozlik qilgan. Termizlik mashhur muhaddis Abu Iso at-Termiziy al-Buxoriyga ham shogird, ham safdosh hisoblanib, ularning o‘zaro munosabatlari ibratli bo‘lgan.

Imom al-Buxoriy to‘plamlariga kiritilgan hadislar faqat islom ta’limotiga oid umumiy qoidalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmaydi. Ular mehr - muhabbat, saxiylik, ochiq ko‘ngillik, ota - ona, ayollar va kattalarga hurmat, yetim - yesirlarga muruvvat, faqir bechoralarga himmat, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik va halollikka da’vat etish kabi haqiqiy insoniy fazilatlar va namunali tartibotlar majmuasidir. Unda nima yaxshi, nima yomon, nimani

qilish kerak, nimadan o‘zni tiyish lozimligi haqida hozirgi jamiyatimiz ahli, ayniqsa, yosh avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega yo‘l - yo‘riqlar, pand - nasihat va o‘gitlar aks ettirilgan.

Imom Buxoriyning eng muhim asari, shubhasiz, “Al-jome’ as - sahih” (Ishonchli to‘plam) dir. «Al-Jome’ as-sahih» deb nomlangan to’rt jild (juz’)dan iborat hadislar to‘plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan to‘plamlar orasida eng ishonarli va mukammalidir. Bu asar “Sahih al-Buxoriy” nomi bilan ham mashhur bo‘lib, uning g‘oyat ahamiyatli tomoni shundaki, Imom al - Buxoriy turli roviylardan eshitgan hadislarni tabaqalarga bo‘lib, ularning ishonchlilarini ajratib, alohida kitob yaratdi.[21, -B.31] Imom Buxoriyning “Sahihi Buxoriy” hadis to‘plamini o‘rganish davomida, kitobda axloqiy masalalar bilan bir qatorda ijtimoiy masalalar va ularning yechimlari bayon qilingan muborak hadislar ham o‘z o‘rnini topganligini ko‘rish mumkin. Ayniqsa, g‘iybat, chaqimchilik, gap tashish, hasad, arazlashish kabi salbiy illatlar va savdo-sotiq, zakot, yetimlar, qarindoshlar, yoshi ulug‘larni hurmatlash kabi o‘zaro muammolar yechimi bayon qilingan va bu masalalar hozirgi kunda inson ma’naviy olamiga qanchalik ta’sirini ko‘rish mumkin. Olim M.Xayrullayev ta’kidlab o‘tganlaridek, “islom dinining manbalari “Qur’oni Karim” va Payg‘ambarimizning muborak hadislarida “… ilohiyot, diniy masalalar bilan birga o‘z davrining axloqiy va siyosiy an’analari, insonparvarligi, insonlarni qovushtiruvchi, ular o‘rtasida ziddiyat, nizolarning oldini oluvchi, adolat o‘rnatishga qaratilgan axloqiy fikrlar ham keng o‘rin olgan”.[22, - B. 18]

Darhaqiqat, ayni bugungi kunda globallashuv jarayoni keskinlashayotganligi, ayrim xalqlar o‘rtasida nizo, kelishmovchiliklar, urush, o‘q otishlar, begunoh insonlarni o‘ldirish, islomni noto‘g‘ri talqin etgan holatda insonlarga azob berish, ularni xo‘rlash, turli xil taziyiqlar o‘tkazilayotganligi bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasida ko‘rish mumkin. Ayni paytda islom dinining manbalari “Qur’oni Karim” va Payg‘ambarimizning muborak hadislarida ko‘rsatilgan insonparvarlik, adolat g‘oyalarini bugungi insoniyat ongiga, shuurga aylantirish qanchalik dolzarb ekanligini ko‘rish mumkin.

Payg‘ambarimiz (s.a.v.) axloqiy va ijtimoiy muammolarning eng yaxshi yechimi mahalla, jamoat ekanligini alohida ta’kidlaydilar: “Mo‘minlarni o‘zaro rahmdillik, do‘stlik va hamdardlik qilishlikda bir a’zosi og‘risa, qolgan barcha a’zolari birgalikda uni himoya qilib darddan xalos bo‘lishiga ko‘maklashuvchi bir tana kabidir deb bilgin!”[23]– deganlar. Bunday jamoatda yashayotgan haqiqiy inson o‘zini yagona bir jismning, barcha a’zolari o‘zaro hamdard va hamkor oilaning bir qismi sifatida his etishi lozim. Bu xil jamoatning har bir a’zosi faqat o‘zini, shaxsiy manfaatini o‘ylamay, jamiyatning barcha a’zolari manfaatlarini himoya qilishi, uning har qanday muammolarini hal qilishda ishtirok etishi zarur. Jamoatga berilgan ushbu ta’rif, bizningcha, avvalo, odob-axloqqa oiddir.

Odob-axloq mamlakatimiz xalqlari madaniy hayotining ajralmas qismi, ezgu qadriyatlarimizdir. Har bir fuqaro ma’naviyatining shakllanishi va kamol topib borishida odob-axloqni ta’sir ko‘rsatishi muqarrar. Odob-axloq o‘ziga xos qonunlar, udum va an’analarga amal qiladi. Har bir fuqaro odob-axloqni ahamiyatini yaxshi anglab yetishi zarur. Bu mas’uliyat esa aql idrok amriga rioya qilish, halollikni hayot qonuni deb bilish, iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatda odob-axloq munosabatini ham e’tiborda tutish, yuksak odob va madaniyat sohibi bo‘lib yurtdoshlar diliga xushnudlik, yaxshi kayfiyat bag‘ishlash, hamisha adolatli va haqgo‘y, shirin so‘z va muloyim, kamtar va saxovatli bo‘lish, mahalla ahliga hech qachon ozor yetkazmaslik, g‘iybat, hasad, tuhmat, chaqimchilik, manmanlik kabi illatlardan yiroq bo‘lish, ichkilikbozlik va giyohvandlikdan hazar qilish singari xislatlarga ega bo‘lishni taqozo etadi.

Har bir ota-ona o‘z farzandlarini odob-axloq ruhida tarbiyalab, avvalo odob-axloqqa o‘rgatishi, salomlashishdan tortib kattalarni hurmat qilish, ularning nasihatlariga amal qilishga, to‘g‘ri so‘z va muloyim, ojizlarga madadkor, muhtojlar diliga malham bo‘lish kabi ta’lim - tarbiyani berishi lozim. Ular voyaga yetganlarida halollik va mehnatsevarlik, odob va hayo, do‘stlik va odamiylik, iymonlilik kabi insoniy fazilatlar bilan uyg‘unlikda bo‘lishi kerak.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

Bularning barchasini odob-axloq manbai bo‘lgan Qur’oni karim va hadisi shariflardan o‘rganib, farzandlarimizni eng yaxshi fazilatlar sohibi qilib kamolga yetkazaylik. Shunda insoniyat oldida yuzimiz yorug‘ bo‘ladi, mahallada farovonlik, ahillik, osoyishtalik qaror topadi.

Imom al-Buxoriy to‘plamlariga kiritilgan hadislar faqat islom ta’limotiga oid umumiy qoidalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmaydi, balki hadislarining jahonshumul ahamiyati insoniylik, insonparvarlik Vatanga muhabbat haqida tarbiya berishi bilan yosh avlodda ezgulik va go‘zallik tuyg‘ularini mujassamlashtiradi, insonlarni bir - birlariga mehr-oqibatli bo‘lishlariga, ota-ona va kattalarga doimo hurmatda, yetim-yesirlarga muruvvat, sahiylik, omad, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halollik, turli xalqlarning o‘zaro do‘st, tinch-totuv yashashlari kabi insoniy fazilatlari ruxida tarbiyalaydi.

Imom al - Buxoriy hadislari, aql durdonalarini yoshlar tomonidan yanada ko‘proq o‘zlashtirilishi Yangi O‘zbekiston ehtiyojlariga mos kelib ahloqiy fazilatlarni o‘rganish ya’ni ijtimoiy gumanitar fanlarini o‘qitishda yoshlarda ajoyib ichki kechinmalar, his-tuyg‘ular uyg‘otadi. Hadislar yoshlarni mehnatsevarlik va erksevarlik, har qanday og‘ir vaziyatda ham mustahkam iroda, vazminlik bilan ish tutish va omilkorlik, kelajakka, insonga doir udum va an’analar ruhida shuningdek shaxs ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga katta imkoniyat beradi. Imom al-Buxoriy hadislari o‘z Vatanini sevuvchi uning ravnaqi va istiqboli uchun fidoiy yoshlarimiz, barkamol avlod uchun albatta dastrulamal bo‘lib qolishi shubhasizdir.

Imom Buxoriy ma’naviy merosini o‘rganish bo‘yicha O‘zbekistonda yillar davomida qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. YUNESKO Bosh assambeliyasi qaroriga muvofiq 1998 yili Ismoil al-Buxoriy tug‘ilgan kunning 1225 yilligi; Xalqaro darajada 1998 yil 23 oktabrda muqaddas qadamjo Imom Buxoriy yodgorlik majmuasining ochilishi [24, -B.11]; 1998 yilning 16 noyabrida O‘zbekiston Prezidenti Imom Buxoriy xalqaro jamg‘armasining tashkil etilishi; jamg‘armada asosan islomshunoslik manbalarini o‘rganish, allomalar merosini tadqiq va targ‘ib qilish, diniy manbalardagi insonparvarlik va bag‘rikenglik g‘oyalariga asoslanib turli xil diniy aqidaparastlik va ekstremistik oqimlarning iddaolariga zarba berish, islom ta’limotlarida bolalar va ayollar huquqlarining ifodalanishiga oid xalqaro konferensiya va simpoziumlar tashkil etish bilan shug‘ullanayotganligi; jamg‘arma vazifalaridan biri sifatida (2000 yildan boshlab xozirgi kungacha) “Imom al-Buxoriy saboqlari” jurnalining nashr etilishi. Jurnalda Imom al -Buxoriy ma’naviy merosini o‘rganishga, u bilan zamondosh bo‘lgan allomalarning asarlarini tadqiq etish, o‘zbek olimlari professor U.Uvatov, B.Turayev, A.Berdimurodov, N.Jabborov, Sh.Umarov, Y.Isayev, O.Muhammadiyev, Q.Mahmudov, I.Daminovlarning qo‘lyozmalarni o‘rganishga oid maqolalari nashr etilishi bu borada e’tiborga loyiqdir.

2017 yil 27 martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2855-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga[25] muvofiq Imom Buxoriy ma’naviy merosini yanada keng ko‘lamda chuqurroq tadqiq etishga keng yo‘l ochildi; Markaz ilmiy jamoasining jahon miqyosida manbashunoslik sohasida olib borilayotgan zamonaviy tajribalardan xabardor bo‘lishiga, xorijiy sharqshunos, islomshunos olimlar bilan o‘zaro hamkorlik qilishiga keng imkoniyatlar yo‘lga qo‘yildi. Shu qarorga muvofiq ayni paytda Markazda xalqaro simpoziumlar, konferensiya va ilmiy seminarlar tashkil etilishi rejalashtirilgan, markaz olimlarining jahondagi yirik islomshunoslik markazlarida o‘z malakalarini oshirishlari hamda xorijiy olimlar bilan tajriba almashishlari amalga oshib kelinishi, bu soxada katta muvofaqqiyatlarga erishayotganlarimiz ko‘zda tutilmoqda.

Xulosa. Hadislarning asosiy mavzulari islom dini aqidalari, iymon, ibodat, haj, zakot, ro‘za, nikoh, taloq, vasiyat va Payg‘ambarimiz(s.a.v.) amallari, aytgan so‘zlarining sharhlaridan iborat. Bundan tashqari o‘sha davr tarixi va etnografiyasiga doir ma’lumotlar mavjud.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

Imom Buxoriyning to‘plangan hadislarning sahixigini (ishonchliligini) aniqlashda, hadislarni klassifikatsiya qilishda qo‘llagan metodologiyasini o‘rganish ham hozirgi zamon epistemologiyasiga boy ilmiy ozuqa berishi mumkin. Hadislarni sharhlashda bugungi kunda zamonaviy metodologik tahlil usullaridan, xususan, germenevtik, sinergetik yondashuvlardan samarali foydalanish lozim. Shundagina biz Imom Buxoriyning tom ma’nodagi durdona fikrlarining mag‘zini chaqishga erishamiz.

Imom Buxoriy butun hayoti davomida ilmiy xolislikka, samimiylikka masalaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yondashish kabi tamoyillarga qat’iy rioya qilganligi, uning yozganlarining ishonarlilik va manbasini aniq ko‘rsatishi jihatidan barcha allomalarning e’tibori va hurmatini qozongalligi sababli ham ming yil mobaynida o‘z qiymatini saqlab kelmoqda.

Imom al-Buxoriy hazratlari nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun musulmon olamining faxr-iftixoridir. Ul tabarruk zotning hayoti tom ma’nodagi ilmiy va insoniy jasorat, bukilmas iroda, so‘nmas e’tiqod timsolidir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 19 sentabr kuni AQSHda bo‘lib o‘tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72 sessiyasida so‘zlagan nutqidan. // https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/ozbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasining-72sessiyasida-nutq-sozladi.html
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch–Toshkent: Ma’naviyat, 2008
3. Imom Buxoriy. Al-Adab al-mufrad. Tarjimonlar Sh.Boboxonov, N.Abdumajid. – Toshkent:. Movarounnahr, 2006.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Odoblar xaziynasi. Imom al-Buxoriy “Al-Adab al-mufrad” kitobining sharhi. 3 juzlik. – Toshkent, Sharq, 2008–2009
5. Hazrat imom al – Buxoriy (matn): Imom al – Buxoriyning hayoti va ilmiy merosi / Shayx Abdussalom al – Muborakfuriy: arab tilidan U.Uvatov tarjimasi. –Toshkent, Toshkent Islom universiteti, 2015
6. Husniddinov Z. Islom: yo‘nalishlar, mazhablar, oqimlar. - Toshkent, Movarounnahr, 2000.
7. Alixonto‘ra Sog‘uniy. Tarixi Muhammadiy. – Toshkent: Movarounnahr, 2017
8. Imom Buxoriy. Al-Jome’ as-Sahih. Z.Ismoil tarjimasi. – T.:Qomuslar bosh tahririyati. I -4 jild, 1991.
9. Uvatov U. Imom Buxoriy. Buyuk allomalar. – T.:TIU, 2001; Uvatov U. Movaraunnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o‘rni (Al-Buxoriy, Muslim, At-Termiziy). Tar.fan.dok.diss.avtoreferati… - T.:TIU, 2002.
10. Eshonjonov B. IX – asr Movaraunnahr madaniy hayotida imom al – Buxoriyning mavqei va uning “AlJome’ as-Sahih” asaridagi fiqhiy masalalar.Tar.fan.nom.diss... – T.:TDSHI, 2000
11. Murodov D. Hadisshunoslik atama va iboralari. – T.: Fan, 2009.
12. Usmanov I.Al-Hakim at-Termiziyning «Navodir al-usul» asari hadis va tasavvuf ilmiga oid muhim manba. Tar. fan. nom. dis… - T.: TIU, 2005.
13. Al-Muborakfuriy. Tuhfa al-ahvaziy. Muqaddima. – Bayrut.: Dor al-kutub al-ilmiya, 1-jild.
14. Muhammad Abu Zahv.Al-Hadis val-Muhaddisun. –Bayrut.: Dor al-kutub al-ilmiya,1984
15. Byorton J. Musulmanskoye predaniye: vvedeniye v xadisovedeniye. – Moskva.: 2006
16. Imom Buxoriy ta’rifi/ Goya muallifi Sh.Umarov – Samarqand: Imom Buxoriy xalkaro markazi nashriyoti, 2018 yil
17. https://ru.wikipedia.org/wiki/ Islam: ES, 1991
18. http://hadis.islom.uz/maqolalar/item/85-hadis-hadisiqudsiy-quron.html
19. Buyuk siymolar, allomalar: O‘rta Osiyolik mashhur mutafakkirlar va donishmandlar. K. 1. – Toshkent, O‘zbekiston, 1995.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

20. Usmonxon hoji Temurxon o‘g‘li va Baxtiyor Nabixon o‘g‘li Imom al-Buxoriy muhadislar sultoni – Toshkent, O‘zbekiston Milliy Ensiklopediya dalat ilmiy nashriyoti, 1998
21. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Jome’ as-sahih (ishonchli to‘plam), 4 jildlik – Toshkent, Qomuslar bosh taxririyati, 1991-1999
22. Hayrullayev M.M. O‘rta Osiyoda ilk uyg‘onish davri madaniyati.- Toshkent, FAN, 1994.
23. Imom Buxoriy. Sahihi Buxoriy. “O‘zbekistan milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent –2008, “Odob kitobi” 27-bob, 6011-hadis
24. Imom Buxoriy ta’rifi. G‘oya muallifi Sh.Umarov – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2018
25. http://lex.uz/docs/3263382 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori: «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida». Toshkent sh., 2017 yil 10 iyul, 483-son Qarori.